



NOTO'LIQ OILADAGI BOLALARDA O'ZINI BAHOLASH VA O'ZIDAN QONIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Odinabonu Oxunjanova Ismoiljon qizi

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Inson hayotida oila eng asosiy ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Deyarli barcha ilmiy va amaliy manbalarda ta'kidlanishicha, bolalik davridan boshlab bolaning ruhiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishida oila muhitining ta'siri beqiyos hisoblanadi. Ayniqsa, bola o'zini yetuk va bir butun inson sifatida his etishi, o'ziga bo'lgan bahosi va o'zidan qoniqish hissining shakllanishida oila, ota va ona muhiti muhim ahamiyatga ega. Noto'liq oilalarda esa, ya'ni ota yoki onadan birining yo'qligi, bolada fundamental psixologik ehtiyojlarning qoniqmasligi, ruhiy rivojlanish jarayonining turli xususiyatlari paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday oilalarda o'sayotgan bola ko'plab psixologik va ijtimoiy muammolarga duch keladi. U avvalo o'zini atrofidagi tengdoshlaridan boshqacha his qiladi. Onasiz yoki otasiz bo'lgan bolalar orasida o'ziga bo'lgan baho pastligi, o'zini yetarli darajada qadrlay olmaslik, hayotda o'z o'rnini ko'ra olmaslik, kelajakka bo'lgan ishonchning sustligi kabi hollar keng uchraydi.

Kalit so'zlar: oila, bolalar, psixologlar, psixologiya, ijtimoiy muammolar, ruhiy rivojlanish, mehr, e'tibor, o'smirlar, ijtimoiy-psixologik holat, baholash.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SELF-ESTEEM AND SELF-SATISFACTION IN CHILDREN FROM DYSFUNCTIONAL FAMILIES

Odinabonu Okhunjanova Ismoiljon qizi

Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature

Master's student in Psychology



Abstract: The family is one of the most important social institutions in human life. Almost all scientific and practical sources emphasize that the influence of the family environment on the mental, emotional and social development of a child from childhood is incomparable. In particular, the family, father and mother environment is of great importance in the formation of a child's sense of himself as a mature and whole person, his self-esteem and self-satisfaction. In dysfunctional families, that is, the absence of one of the fathers or mothers, the child's fundamental psychological needs are not satisfied, which leads to the emergence of various features of the mental development process. A child growing up in such families faces many psychological and social problems. First of all, he feels different from his peers. Among children without a mother or father, low self-esteem, inability to adequately value themselves, inability to see their place in life, and weak confidence in the future are common.

Keywords: family, children, psychologists, psychology, social problems, mental development, affection, attention, adolescents, socio-psychological state, assessment.

Bola uchun eng muhim ijtimoiy muhit hisoblangan oila strukturasi buzilganidan so'ng, bola ijtimoiylashuv jarayonining muayyan bosqichlarida qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa uning o'zini baholashi va o'zidan qoniqishi jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Noto'liq oiladagi bolalarda, ayniqsa bolalik davri va o'smirlik yillarida, ota-ona orasidagi g'amxo'rlik va mehr yitishmovchiligi, hushyor nazoratning pastligi, mustaqil qarorlar qabul qilishga dastlabki sharoit yo'qligi, ruhiy himoya tizimlarining sustligi kabi jihatlar ko'zga tashlanadi. Bunday bolalar yig'loqi, tez ranjiydigan, shubha-gumonga moyil bo'lib qolishi mumkin. O'z-o'zidan qoniqmaslik, kasbiy yoki shaxsiy hayoting eng oddiy sohalarida ham o'ziga ishonchsizlik namoyon bo'ladi. Bola atrofida jamiyat, ayniqsa do'stlari yoki sinfiydoshlari unga yetarli mehr va e'tibor ko'rsata olmasa, u ko'pincha o'zining qadriga yetmaydi. Ayrim holatlarda esa, bola o'zini muayyan darajada kam bo'lsa-



da, atrofdagilardan ustunroq ko'rsatishga, haddan tashqari mustaqil ko'rinishga harakat qiladi. O'zini baholash va o'zidan qoniqish jarayoni insonning butun hayot faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Noto'liq oilada o'sayotgan bolalarda, ayniqsa, bu motivatsiya, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faoliyatga tayyorlik va boshqa illatlarga salbiy yo'nalishda aks etishi mumkin. Bola uchun asosiy psixologik himoya bo'lgan oila ko'magidan mosuvo qolishi, uni ko'proq silliq yo'l bilan emas, turli psixologik muammolar orqali shakllanishiga olib keladi. Natijada, o'z-o'zini qadrlay olmaslik, o'ziga ishonchsizlik, zamonaviy jamiyatda o'z o'rnini topolmaslik hollari yuzaga keladi. Noto'liq oilada yuqoridagi muammolar bilan bir qatorda, ba'zan bola ruhiy va ijtimoiy jihatdan bardam bo'lib ulg'ayishi ham mumkin. Ayrim bolalar hayotda ko'p qiyinchiliklarni ko'rgani uchun erta mustaqil, ijodkor, mard va to'g'ri gapiradigan bo'lib ulg'ayadi. Bunday bolalarning motivatsiyasi turlicha bo'lishi mumkin; kimdir otasiz yoki onasiz ulg'ayayotgani uchun jamiyat hurmatiga erishish, boshqalarga o'xshash bo'lishga intiladi, ba'zilar hayotga noaniq, jahldor yoki shubhali qaraydi. Ruhiy taraqqiyot nuqtai nazaridan, bola uchun eng muhim omillardan biri o'zidan qoniqish va o'zini qadrlay olishdir. Noto'liq oilada bola bu hissiyotlarni ko'p hollarda tashqi muhit, yaqin qarindoshlar, do'stlar yoki o'qituvchilar orqali to'ldirishga harakat qiladi. Ota-ona ko'magidan to'liq bahramand bo'la olmagan bolalarda ijtimoiylashtiruvchi muhit, ya'ni maktab, mahalla va atrofdagilar muhim rol o'ynaydi. Doimiy rag'bat, e'tibor, mehr va iliq so'zlar ham bolada o'zini baholash, imkoniyatlarini ko'ra olish hamda o'zidan qoniqish hislarini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi.[1]

Sotsiologik jihatdan olib qaraganda, noto'liq oiladagi bola ko'pincha jamiyatda o'zini "begona" yoki "ikkinchi darajali" his qiladi. Ko'p hollarda maktabda yoki jamiyatda sodir bo'ladigan muammolarning ildizi ana shu jamoaviy e'tibor yoki mehrning yetishmasligidadir. Bu holat bolada o'zini qadrlay olmaslik, o'z imkoniyatlarini kam baholash, mutlaqo yetmaydigan (loyiq emasman) degan xulosalarga olib keladi. Ba'zida, bunday bolalar jamiyatda erkin harakat qilishdan



cho‘chib, o‘zini keraksiz yoki begunoh his qilib qoladi, o‘z hayotiga salbiy nazar bilan qaraydi. Agarda bola odatdagidan ko‘ra ko‘proq ruhi tushkun, o‘zini doim aybdor sezar bo‘lsa, bu uning o‘zini baholashi va o‘zidan qoniqish hissini yanada pasaytiradi. Psixologik nuqtai nazardan, noto‘liq oiladagi bolalarda, o‘ziga nisbatan shubha, xavotir, o‘zini boshqalar oldida ojiz ko‘rish va doimiy raqobatga tayyorlik hamda maqtovg‘a tashnalik tuyg‘ulari kuchli bo‘ladi. Ular meni tan olmaydilar, hurmat qilishmaydi, qadrlashmaydi, degan fikrlarga tez boradi. Bu esa, hayotda faol ijtimoiy rolni egallash, mustahkam do‘stlik aloqalarini shakllantirish, jamiyatga foydali shaxs bo‘lib yetishish, erkin fikrlash va o‘zini anglash uchun jiddiy to‘siqlardiyuzaga keltiradi. Noto‘liq oilada o‘sayotgan bola har doim ham boshqa bolalardan past yoki zaif bo‘lmaydi. Aksincha, ayrim hollarda u juda tez ruhiy ulg‘ayadi, tez mustaqillashadi, to‘siqlarga bardosh berishni erta o‘rganadi. O‘z hayot yo‘lini o‘zi belgilashni xohlaydi, turli muammolarni mustaqil hal qilishga intiladi. Biroq, aynan shu erta mustaqillik yonida, bolada ichki xafalik, bezovtalik, soddalik, atrofdagilarning mehriga, iliqligiga bo‘lgan qattiq ehtiyoj ham kuchayadi. Bu hissiyotlarni bola yashirishga harakat qilgan sari, ruhiy holati zaiflashib, mavjud muammolarni oshkora ifoda eta olmaydi.[2]

Bolaning o‘zidan qoniqish va o‘zini baholash jarayoni ko‘p jihatdan u yashayotgan oilaviy muhitga, o‘qiyotgan maktab, uchrayotgan muallim va do‘stlarning e‘tiboriga bevosita bog‘liq. Ota yoki onadan ayrilgan bolaning hishayajonlari, dardlari, ruhiy ehtiyojlari ko‘p hollarda begona bo‘lmay, balki atrofmuhti, maktabdagi jamoaviy hayot orqali to‘ldiriladi. Lekin bunday bolalarda noto‘g‘ri baho yoki o‘zidan qoniqmaslik holatlari ko‘proq uchraydi. Sababi, ularni doimiy rag‘batlantirish, uzluksiz mehr va erkalash tizimi yetarli bo‘lmaydi. Shuningdek, bunday oilaviy sharoitda bolada ota yoki onaga istagan muammosi, g‘am-tashvishini erkin ayta olmaslik, o‘zidan kirib, ichki kechinmalarini to‘liq ifoda eta olmaslik hollari keng uchraydi. Bu esa ularda ruhiy bosim, tushkunlik, ba‘zan esa o‘ziga-o‘zi nisbatan nafrat, hayotdan norozilik, mustahkam do‘stona rishtalardan



masofa saqlash kabi davomiy muammolarni yuzaga keltiradi. Bilim olish, ijodiy faoliyat, sport va boshqa ijtimoiy sohalarda ham nisbatan passiv, befarq yoki o'zini past baholaydigan tarzda namoyon bo'lishi kuzatiladi. O'zini baholash va o'zidan qoniqishning asosiy psixologik resursi bu – bola ongi, ongosti va atrofidagi uyg'un muhitdir. Ijobiy ijtimoiy muhitga ega bo'lgan, doimo qo'llab-quvvatlovchi yaqinlariga, mehrli oila a'zolariga, maktabda befarq bo'lmagan o'qituvchilarga ega bolalar, hatto noto'liq oilada o'sgan hollarda ham, o'zini qadrlash, o'zidan qoniqish, hayotning har bir jabhasida faol rivojlanishda davom etadi. Ular atrofida doim ijobiy namuna mavjud bo'ladi, turli to'garak, jamoat klublariga qatnash orqali o'zini kashf eta oladi. O'z-o'zini baholash - bu bolaning ijtimoiy rolini tahlil qilishi, ijtimoiy tashabbuslarni bajarish qobiliyatini ko'ra olishi, ijtimoiy va shaxsiy salohiyatini niyat va harakatlari orqali tan olishi natijasidir. Agar bola bolaligidan ijobiy rag'bat, mehr, ishonch his qilsa, o'zini kuchli va muvaffaqiyatli deb hisoblaydi. O'zidan qoniqish tuyg'usi rivojlansa, kelajakda har qanday to'siqlarni yengish, hayot sinovlarini o'zi va boshqalar foydasiga hal qilish, jamiyatda faol bo'lishga tayyor bo'ladi. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, noto'liq oilalar bor, ularning tug'ilishidan to'ulg'ayishigacha bo'lgan hayoti o'zgacha rivojlanadi. Bunday oiladagi bola ruhiy quvvatni to'ldirish uchun ko'proq tashqi ijtimoiy muxitga, do'stlar, o'qituvchilar, yaqin qarindoshlarga muhtoj bo'ladi. Shu ma'noda, maktab psixologi, sinf rahbarlari, ijtimoiy pedagoglarning bevosita aralashuvi, bolaning ruhiy qoniqish darajasini oshirish, o'zini qadrlash borasida hayotiy motivatsiyani oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday bolalari bor oilalarga, ayniqsa onalar yoki otalar uchun farzandga ko'proq e'tibor, to'g'ri tarbiya, fikr almashish uchun imkon yaratib berish tavsiya etiladi. Ko'pincha, noto'liq oilalarda bolalar hissiyotlarni o'zida saqlaydi, aytolmaydi, ichki muammolar kuchayib boradi. Ruhiy maslahatchi, hayotiy yo'llanma, hayot haqidagi suhbatlar, mehr, ishonch beruvchi harakatlar bola hayotida muhim o'rin tutadi. O'zini qadrlash va qoniqish hissini



kuchaytirish, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun bunday bolalarga mehr, doimiy e'tibor va quvnoq hayotiy muhit zarur bo'ladi.[3]

O'smir yoshidagi bolalarda ham bu jarayon davom etadi. Ota-ona mehridan mahrum, oiladagi beqarorlik ko'pincha o'ziga nisbatan befarqlik, qattiqqo'llik, vaqtinchalik depressiyaga moyillik tarzida namoyon bo'ladi. Ba'zan bunday bolalar maktabda yoki boshqa tashkilotlarda do'st topolmaydi, ichki dunyosini boshqalar bilan bo'lishmaydi. Ba'zan esa, aksincha, bolada agressiya, o'zini ko'rsatishga, tez ko'ngli qolishga moyillik, guruhdan ajralib qolish istagi avj oladi. Barcha hollarda ham o'zidan qoniqish darajasi shakllanmay qoladi, real ijtimoiy o'zaro munosabatlarda qiynaladi, hayotga turg'un munosabat og'irligi kuchayadi. Noto'liq oiladagi bolalarda o'zini baholash va o'zidan qoniqish hissini shakllantirish uchun eng avvalo hayotiy motivatsiyani ko'paytirish, mehrga doimo tashna bolani ijtimoiy muhitga tezroq moslashtirish, unga do'st topish uchun yordam berish, orzularni reja sifatida shakllantirishga ko'maklashish, har qadamda rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish zarur. O'zini qadrlash, o'zidan qoniqish va jamiyatda faol bo'lish uchun bolaga sodda va samimiy insoniy munosabat kerak, bolaga qiynalganida imkon va maslahat kerak, bolaning ijtimoiy rivoji uchun ijtimoiy va pedagogik muhit faol va samarali bo'lishi shart. Bu masala bo'yicha ilg'or amaliy tajribalar va zamonaviy psixologik texnikalar, jumladan, motivatsion treninglar, ruhiy maslahatlar, guruhda ishlash, emotsional qamrovlarni kengaytirish usullari, hayotiy rol o'yinlari va boshqa metodlardan foydalanish eng samarali yo'llardan biri bo'lmoqda. Doim eslash kerakki, har bir bola, hatto noto'liq oilada o'sayotgan bola ham, yetarlicha mehr, ishonch va rag'bat ko'rsa, jamiyatda o'z o'rnini topib, o'zidan ko'proq qoniqish his etadi. Bola o'zini qadrlashni oiladan, keyin maktabdan, atrofdagi insonlardan o'rganadi. Bu yo'lda jamiyatning har bir vakili – oila, pedagog, qo'shni, mahalla faollari va boshqalar birdek javobgar va mas'uldor bo'lishi kerak.[4]



Xulosa:

Noto'liq oiladagi bolalarda o'zini baholash va o'zidan qoniqishning psixologik xususiyatlari ko'plab omillarga bog'liq, asosiy sabab – yetarlicha mehr va e'tibor etishmaydi, bolada o'zini qadrlash va jamiyatda o'z o'rnini topish uchun ichki ishonch kuchsiz bo'ladi. Agar maktab, yaqinlar, do'stlar va ruhiy maslahatchilar tomonidan yetarli ijobiy muhit yaratilsa ham, bola o'zidan qoniqish va o'zini qadrlashga erishadi, hayotda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Bolaning ruhiy salomatligi va to'g'ri shakllanishi uchun har doim ularning ichki dunyosiga ehtiyotkorlik, mehr va rag'bat bilan yondashish zarur. Har bir bola, qaysi oilada o'sganidan qat'i nazar, jamiyatda o'z o'rnini topishga, baxtli hayot uchun rivojlanishga to'liq haqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramjonova, F. A. (2023). Maktabgacha ta'limda pedagog professiogrammasini tashkil etishning asosiy jarayonlari. *Science and Education*, 4(12), 481-485.
2. Asqarova O'.M Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi. / Monografiya-T; "Fan"nashriyoti 2010-121 b.
3. G'ofurjon Abdullayev va Bahtiyor Xolmirzayev. "Yosh kelin-kuyovlar uchun yon daftarcha". "Arjumand" nashriyoti. Namangan 2020-yil.
4. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
5. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
6. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.
7. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.